

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**TURAYEV FOZILJON JURAQULOVICH**

**ICHIDAN SUYUQLIK OQIB O‘TAYOTGAN QOVUSHQOQ-ELASTIK  
QUVURLARNING TEBRANISH JARAYONINI MATEMATIK  
MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui”  
01.02.04 – “Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi”

FIZIKA-MATEMATIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физико - математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) of  
physical and mathematical sciences**

**Turayev Foziljon Juraqulovich**

Ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan qovushqoq-elastik quvurlarning tebranish jarayonini matematik modellashtirish ..... 3

**Тураев Фозилжон Журакулович**

Математическое моделирование колебательных процессов вязкоупругих трубопроводов с протекающей жидкостью..... 21

**Turaev Fozilzhon Zhurakulovich**

Mathematical modeling of oscillatory processes in viscoelastic pipelines with flowing fluid..... 42

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 46

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**TURAYEV FOZILJON JURAQULOVICH**

**ICHIDAN SUYUQLIK OQIB O‘TAYOTGAN QOVUSHQOQ-ELASTIK  
QUVURLARNING TEBRANISH JARAYONINI MATEMATIK  
MODELLASHTIRISH**

05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui”

01.02.04 – “Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi”

FIZIKA-MATEMATIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T1117 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (<http://tiame.uz>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Mirsaidov Mirziyod Mirsaidovich**

O'zR FA akademigi, texnika fanlari doktori, professor

**Xudayarov Baxtiyar Alimovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarov Ismoil Ibrohimovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rahmonov Zafar Ravshanovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot**

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025-yil "31" "10" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy)

Dissertatsiya ishi bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (384 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil "17" oktyabr dagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi)



*Handwritten signature*

**N.S. Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

*Handwritten signature*

**D.Q. Bekmurotov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

*Handwritten signature*

**G.U. Jo'rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda gaz, neft va neft mahsulotlarini quvur orqali transportirovka qilish mamlakatlar iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tejamkorligi, ekologik xavfsizligi va belgilangan sanoat ob'yektlariga gaz va neft mahsulotlarini uzluksiz ta'minlashi bilan quvur transporti boshqa transport turlaridan farq qiladi. Quvur transportirovkasi jarayonida turli tashqi va ichki ta'sirlar yordamida quvurlarda ro'y beradigan tebranish jarayonlari tasodifiy halokatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, soha ob'yektlari katta iqtisodiy zarar ko'rishi, atrof-muhit ekologiyasi buzilishiga olib keladi, shuningdek insonlar hayotiga ham xavf solishi mumkin. Shu sababli, silindrik quvurlar jarayonini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Texnik konstruksiyalarning uzluksiz o'zgarib borishi, murakkablashuvi va materiallar sanoatining taraqqiyoti matematik modellashtirish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar uchun misol sifatida katta oqim sharoitiga mo'ljallangan yupqa devorli konstruksiyalarni, jumladan gaz va neft quvurlarini texnologik loyihalash jarayonining murakkablashuvi va ishlab chiqarishni misol qilib ko'rsatish mumkin. Yangi xil ko'rinishdagi, jumladan kompozitsion materiallarni yaratish va qo'llash bu yo'nalishda yetarlicha rivojlanish omilidir. Dunyo mamlakatlari AQSh, Rossiya, Kanada, Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlari tadqiqotchilari tomonidan suyuqlik transportirovka qiluvchi silindrik kompozitsion quvurlarning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olgan holda tebranish jarayonini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda katta diametrli 10 MPadan ortiq ichki bosimga ega yupqa devorli quvurlarni sterjen yoki balka ko'rinishda emas, balki silindrik qobiq sifatida tekshirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Katta diametrli silindrik quvurlarni tadqiq qilish uchun konstruksiyadagi ichki va tashqi muhitning o'zaro ta'siri hisobga olingan holda yupqa qobiqlar nazariyasi qo'llanilmoqda. Silindrik qobiq tipidagi kompozitsion quvurlarning tebranish jarayonlaridagi murakkab ish hajmlari bo'yicha masalalarni yechishda matematik modellashtirish usullarini qo'llash muhim vositadir. Quvurlar materialining qovushqoq-elastiklik xossalarini e'tiborga olish amaliy natijalarni aniqligini oshiradi. Shu bilan birga kuchlanish va deformatsiya komponentlari orasidagi maxsuslikni, ya'ni materialning qovushqoq-elastiklik xossalarini inobatga olib, gaz va neft quvurlarining silindrik qobiq ko'rinishida qarab, chiziqli va nochiziqli dinamik masalalarning yangi matematik modelini qurish hamda sonli yechish algoritmini va kompyuter dasturlarni yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Respublikamizda kimyo sanoati, neft-gaz tarmoqlari va uy-joy kommunal xo'jaligida kompozitsion va polimer-kompozitsion quvurlar sistemasini loyihalash va barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida, jumladan "...ichimlik suvi, oqova suv tarmoqlarini...", "... tabiiy gaz tarmoqlarini qurish,

rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari ..."<sup>1</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirishda, jumladan neft-gaz sanoati tarmoqlari, aholini suv bilan ta'minlash korxonalarini va gidrotexnik inshootlarning suv chiqarish quvurlarining tebranish jarayoni muammolarini hal etishning dinamik usullari, algoritmlari va hisoblash dasturlarini ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-noyabrdagi PQ-4522-son "Neft va gaz geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish va olib borish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 25-sentyabrdagi "Suv ob'yektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3286-son qarorlari hamda mazkur faoliyatlarga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** So'nggi yillarda elastik silindrsimon qobiqlar ko'rinishidagi quvurlardagi tebranish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar olib borilmoqda, shu jumladan, M.P.Païdoussis, R.A.Ibrahim, Marco Amabili, V.V.Bolotin, M.A.Ilgamov, A.S.Volmir, M.S.Grach, S.G.Shulman, I.S.Fang, I.A.Xarings, E.I.Niordson, I.P.Denis, D.S.Uiver va T.E.Anni ilmiy ishlarida. Respublika olimlaridan T.Rashidov, T.Shirinqulov, F.Badalov, X.Eshmatov, M.Mirsaidov, K.Sultonov, I.I.Safarov, X.Xudaynazarov, T.Mavlyanov, B.A.Xudayarov, R.A.Abdikarimov, M.Q.Usarov, Sh.Bobonazarovlar sterjen va silindrik tipidagi elastik va qovushqoq-elastik quvurlarning tebranishi va mustahkamligi bilan bog'liq bo'lgan masalalar va ularning yechimlari ustida izlanishlar olib borganlar.

Shu bilan birga qovushqoq-elastiklik xususiyatga ega bo'lgan materiallardan tayyorlangan silindrik qobiq tipidagi quvurlar tebranish jarayonlari yetarli tahlil qilinmagan, geometrik noxizizli va pulsatsiyali tezlikka ega bo'lgan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvur tebranish jarayonining matematik modeli ishlab chiqilmagan. Silindrik quvurlarga ta'sir qiluvchi pulsatsiyali oqim, bir va ikki parametrlil asosga ega bo'lgan quvurlarning tebranish jarayonlari, suyuqlik oqimi kritik tezligini aniqlash metodikasi, modellashtirish masalalarining hisoblash usullari yetarli darajada ishlab chiqilmagan va rivojlantirilmagan. Shu sababli, sohalardagi jarayonlar va hodisalarni adekvat ravishda tavsiflovchi matematik modellarni va hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish talab qilinadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-dekabrda PQ-4929-sonli "Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining QXA-13-001 "Ichidan suyuqlik oqib o'tuvchi yopishqoq-elastik quvurlar tebranish jarayonini matematik modellashtirish" (2015-2017) mavzusidagi loyiha va №-2018-224 "Differensial tenglamalar yechimlari va ularning injenerlik masalalariga tadbiqu" (2017-2020) institut ilmiy-tadqiqot ishlari mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlarning tebranish jarayonlarini tahlil qilish uchun matematik modellar, metodlar, hisoblash algoritmlari va kompyuter dasturlarini yaratishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlarning asos bilan o'zaro ta'sirini Vinkler, Pasternak modellar orqali chiziqli va nochiziqli tebranishlari jarayonining matematik modellarini ishlab chiqish;

ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranishi masalalarining diskret modellarini ishlab chiqish;

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranishi masalalari yechimlarining zaruriy aniqligi va qovushqoq-elastik nazariyasi bo'yicha maxsusligi inobatga olingan modellarda hisoblash jarayonining turg'unligini ta'minlaydigan hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish;

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranishi jarayonlarini modelashtirish masalalari sinfining algoritmlari asosida dasturiy majmuasini ishlab chiqish;

ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranish masalalarining yechish va olingan natijalarni tahlil qilish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlarning tebranish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranish jarayonlarining matematik modeli, hisoblash usullari, algoritmlari va kompyuter dasturlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Qovushqoq-elastiklik nazariyasi metodlari; silindrik qobiq nazariyasining matematik metodlari; integral va integrodifferensial tenglamalarni sonli usulda yechish metodlari; amaliy kompleks kompyuter dasturlari yaratish va hisoblash eksperimentlari o'tkazish metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

suyuqlik oqib o'tuvchi silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar Vinkler, Pasternak modellar asosida olingan chiziqli tebranishlari jarayonining matematik modeli takomillashtirilgan;

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar tebranish jarayonlari singulyar yadroli integro-differensial tenglamalarida maxsuslikni ratsional almashtirish orqali yo'qotiladigan va kvadratur formulalarga asoslangan hisoblash algoritmi taklif etilgan;

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik suyuqlik o'tkazuvchi quvurlar gruntli asosni Vinkler, Pasternak modellar asosida olingan nochiziqli tebranishlari jarayoni uchun matematik modeli ishlab chiqilgan;

ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik quvur materialining qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda asosning Vinkler va Pasternak modellari asosida tebranish jarayonini tadqiq qilish uchun dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qovushqoq-elastiklik nazariyasi, silindrik qobiq nazariyasi, integro-differensial tenglamalarni sonli yechish usullarini qo'llash hamda silindrik quvurlarning tebranishi jarayonlari natijalari xorijiy ilmiy jurnallardagi mualliflarning natijalari bilan taqqoslanganligi, sonli yechimlarning xususiy holda analitik yechimlar bilan o'zaro solishtirilganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati deformatsiyalanuvchan qovushqoq-elastiklik nazariyasining integral modellari asosida ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik quvurlar tebranishlarining harakat tenglamalari va hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash algoritmlari va kompyuter dasturlari neft-gaz quvurlari va gidrotexnika inshootlarida suv chiqarish quvurlarini loyihalashtirish hamda matematik modellashtirish nazariyasiga muhim hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati silindrik qobiq tipidagi quvur materiali va gruntli asosning qovushqoq-elastiklik xususiyatlari hisobga olgan holda ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash algoritmlari va kompyuter dasturlari, olingan yangi natijalar suv xo'jaligi, kimyo sanoati va neft-gaz tarmoqlari masalalarini yechishda hamda ta'lim jarayoniga qo'llanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan qovushqoq-elastik silindrik quvurlarning tebranish jarayonini matematik modellashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

suyuqlik oqib o'tuvchi silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlar Vinkler, Pasternak modellar asosida tebranish jarayoniga ta'siri, suv omborlari suv chiqarish quvurlariga gruntli asosning ta'sirini baholash uchun Oqsuv irrigatsiya tizim boshqarmasiga qarashli "Tirkashev Yusuf" fermer xo'jaligi nasos stansiyalaridagi quvurlarning chidamliligi va mustahkamligida joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2022-yil 10-fevraldagi NK16184435-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, quvurlarning mustahkamligini aniqlash maqsadida muhandislik hisoblarini o'tkazishga ketadigan vaqtni 1,5 marta kamaytirish imkonini bergan;

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvurlarning tebranish jarayonlarining matematik modellari, singulyar yadroli integro-differensial tenglamalarida maxsuslikni ratsional almashtirish orqali yo'qotiladigan va kvadratur formulalarga asoslangan hisoblash algoritmi va yaratilgan kompyuter dasturlari "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti o'quv jarayoniga joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2022-yil 10-fevraldagi NK16184435-sonli

ma'lumotnomasi). Natija, talabalarda suyuqlik o'tkazuvchi qovushqoq-elastik quvur masalalari yechimlarini sonli qiymatlarda va grafik holda olish imkonini bergan.

silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik suyuqlik o'tkazuvchi quvurlar gruntli asosni Vinkler, Pasternak modellar asosida hisobga olgan pulsatsiyali suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik quvurlarning nochiziqli tebranishlari jarayoni uchun matematik modeli, hisoblash usuli va algoritmik dasturi Chimqo'rg'on suv omboridagi suv chiqarish quvurlariga joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2022-yil 10-fevraldagi NK16184435-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Chimqo'rg'on suv omboridagi suv chiqarish quvurlarida yuzaga keladigan pulsatsiyali oqimning ta'sirini baholash imkoniyati yaratilgan;

ichidan pulsatsiyali suyuqlik oqib o'tayotgan silindrik quvurlarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda Vinkler va Pasternak modellari asosida tebranish jarayonini tadqiq qilish uchun dasturiy majmua , matematik model, hisoblash usuli Amu-Qashqadaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli nasos stansiyalaridagi suv chiqarish quvurlarini mustahkamlikka hisoblashda joriy qilingan (Suv xo'jaligi vazirligining 2022-yil 10-fevraldagi NK16184435-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, nasos stansiyalaridagi suv chiqarish quvurlarida yuzaga keladigan o'zgaruvchan oqim tezligi, quvurda bosim o'zgarishi va quvurlarning yaroqliligini aniqlash imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika, 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Respublika konferensiyalarida 4 ta, xorijiy konferensiyalarda 4 ta maqola chop etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturlarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 92 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zururati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi hamda tadqiqotning ilmiy ishlar rejasi bilan bog'liqligi ochib berilgan, tadqiqotning o'tkazish uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qovushqoq-elastik silindrik quvurlarning chiziqli dinamikasini baholashning matematik modeli va hisoblash usuli**” deb nomlangan birinchi bobda muammoning hozirgi holati, qovushqoq-elastiklik nazariyasining kuchlanishlar va deformatsiyalar orasidagi bog‘lanishini ifodalovchi differensial va integral modellar keltirilgan bo‘lib, ma’lum tamoyillar asosida ularning ustun jihatlari va kamchiliklari tahlil qilingan. Shunigdek ichidan suyuqlik harakat qiluvchi ortotrop silindrik konstruksiya dinamikasini baholash uchun Boltsman-Volterraning qovushqoq-elastiklik nazariyasiga va Kirxgof-Lyav gipotezasiga asoslangan matematik model ishlab chiqildi. Hosil bo‘lgan integro-differensial tenglamalar sistemasini boshlang‘ich shartlarni qanoatlantirib yechish uchun kvadratura formulaga asoslangan hisoblash usuli, algoritm va kompyuter dasturi yaratildi. Ichidan suyuqlik harakatlanuvchi yupqa devorli silindrik konstruksiyaning dinamik holatlari qovushqoq-elastiklikni turli parametrlarida tahlil qilinib, olingan natijalar bo‘yicha silindrning xavfli tebranish amplitudasini kamaytirish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Qovushqoq-elastik tizimlarning tebranishi va ustuvorligi bo‘yicha dinamik masalalarni matematik modellarini silindrik qobiqlarning geometriyasini e‘tiborga olgan holda tuzish hozirgi kunda juda dolzarbdir, chunki amaliyotning turli sohalarida qovushqoq-elastik xususiyatlarga ega materiallardan foydalanish imkoniyati kengayib bormoqda.

Xotirali qovushqoq-elastiklik nazariyasi masalasini modellashtirishning taklif etilayotgan usuli asosida model tanlashning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- real sharoitlarda kuchlanish va deformatsiyani bog‘lovchi integral modellarning adekvatligi;
- turli nazariyalar asosida yaratilgan matematik modellarning adekvatligi;
- singulyar yadroli nochiziqli integro-differensial tenglamalarning yuqori aniqlikda yechilishini ta‘minlovchi analitik va sonli usullarning samaradorligi;
- nochiziqli dinamik masalalar sinfini tadqiq etish imkonini beruvchi amaliy dasturlar paketining samaradorligi.

Hozirgi kunda ko‘p sonli yetakchi olimlar tomonidan tan olinganki, qovushqoq-elastik jismlarda kuchlanishlar va deformatsiyalar orasidagi bog‘lanishning integral modeli Boltsman-Volterraning kuchsiz singulyar yadroli xotirali qovushqoq-elastiklik nazariyasini adekvat tavsiflaydi (1-jadval).

Xotirali qovushqoq-elastiklik masalasi uchun Boltsman-Volterra integral modelining tanlanishi quyidagi mulohazalarga asoslangan:

- fizik jarayonlarni adekvat tavsiflaydi;
- modelning universalligi – bu modelni xotirali qovushqoq-elastiklik nazariyasi nochiziqli dinamik masalalarining juda keng sinfiga qo‘llash mumkin.

1-jadval

### **Xotirali qovushqoq-elastiklik nazariyasining modellari**

№	Modellarning turlari	Modellarning nomlari
1.	$P(\sigma) = Q(\varepsilon)$ $P, Q$ –chiziqli differensial operatorlar:	Differensial model

	$\begin{Bmatrix} P \\ Q \end{Bmatrix} = \begin{Bmatrix} a_n \\ b_n \end{Bmatrix} \frac{d^n}{dt^n} + \begin{Bmatrix} a_{n-1} \\ b_{n-1} \end{Bmatrix} \frac{d^{n-1}}{dt^{n-1}} + \dots + \begin{Bmatrix} a_0 \\ b_0 \end{Bmatrix}$	
2.	$a_0\sigma + a_1\dot{\sigma} = b_0\varepsilon + b_1\dot{\varepsilon}$	Standart qovushqoq elastik jism modeli
3.	$\sigma(t) = E \left[ \varepsilon(t) - \int_0^t R(t-\tau)\varepsilon(\tau)d\tau \right]$	Boltsman-Volterra modeli

Kuchlanishlar  $\sigma_x, \sigma_y, \sigma_{xy}$  va deformatsiyalar  $\varepsilon_x, \varepsilon_y, \varepsilon_{xy}$  o'rtasidagi o'zgarish qonunini ifodalaydigan Boltsman-Volterra integral modelini integral ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} \sigma_x &= \frac{E}{1-\mu^2}(1-R^*)(\varepsilon_x + \mu\varepsilon_y), & \sigma_y &= \frac{E}{1-\mu^2}(1-R^*)(\varepsilon_y + \mu\varepsilon_x) \\ \sigma_{xy} &= \frac{E}{2(1+\mu)}(1-R^*)\varepsilon_{xy}, & R^*\varepsilon &= \int_0^t R(t-\tau)\varepsilon(\tau)d\tau \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda  $E$  - elastiklik moduli;  $\mu$  - Puasson koeffitsienti;  $R^*$  - relaksatsiya yadrosi  $R(t)$  bo'lgan integral operator;  $t$  - kuzatish vaqti;  $\tau$  - kuzatish momentidan oldingi vaqt;  $\varepsilon_x, \varepsilon_y, \varepsilon_{xy}$  - chekli deformatsiyaning komponentalari.

Sonli yechimlarning aniqligi relaksatsiya yadrosining to'g'ri tanlanishiga bog'liq bo'ladi. Ko'plab muhandislik masalalarini yechishga doir tadqiqotlarda eksponensial yadro yoki eksponentialarning yig'indilari ko'rinishidagi yadrodan foydalanilgan (2-jadval). Relaksatsiya yadrosining eksponensial yoki eksponentialarning yig'indisi ko'rinishida tanlanishi integral modelni kuchlanishlar va deformatsiyalar o'rtasidagi bog'lanishning dastlabki modeliga, ya'ni differensial modelga, keltirish imkonini beradi (1-jadval). Vaqtning boshlang'ich momentida ( $t=0$ ) bu relaksatsiya yadrolari chekli qiymatga ega bo'ladi, chunki bunda relaksatsiya jarayonlarining boshlanishida kuzatiladigan xususiyatlar o'z aksini topmaydi, ko'pgina tadqiqotlar  $R(0) \rightarrow \infty$  ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun qovushqoq-elastiklik xossalariga ega bo'lgan materiallarda kuchlanishlar va deformatsiyalar orasidagi bog'lanishni aks ettiruvchi va adekvatlikni ta'minlovchi integral modellarni shakllantirish uchun maxsuslikka ega bo'lgan kuchsiz singulyar yadroni tanlash masalasi qaralayotgan masalalarning matematik modellarini qurishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

2-jadval

### Xotirali qovushqoq-elastiklik nazariyasining relaksatsiya yadrolari

№	Yadroning ko'rinishlari	Yadroning nomlari
1.	$R(t) = A \exp(-\beta \cdot t), \quad A > 0, \quad \beta > 0$	Eksponensial yadro
2.	$R(t) = \sum_{i=1}^n A_i \exp(-\beta_i \cdot t), \quad A_i > 0, \quad \beta_i > 0$	Eksponentialarning yig'indilari ko'rinishidagi yadro

<b>3.</b>	$R(t) = A \cdot \exp(-\beta \cdot t) \cdot t^{\alpha-1},$ $A > 0, \beta > 0, 0 < \alpha < 1$	Koltunov-Rjanitsin yadrosi
-----------	---	----------------------------

Abel tipidagi eng keng tarqalgan maxsuslikka ega bo'lgan kuchsiz singulyar yadro bu Koltunov-Rjanitsin yadrosidir

$$R(t) = A \cdot \exp(-\beta \cdot t) \cdot t^{\alpha-1}, \quad A > 0, \beta > 0, 0 < \alpha < 1 \quad (2)$$

bu yerda  $A$  - qovushqoqlik parametri,  $\alpha$  - singulyarlik parametri,  $\beta$  - so'nish parametri.

Yadrolar approksimatsiyalarining aniqligi ularni eksperiment natijalari bilan taqqoslab tekshiriladi. Koltunov-Rjanitsinning mavjud uchta parametrli xotirali singulyar yadrosi relaksatsiya yadrolariga qo'yilgan hamma shartlarni qanoatlantiradi va eksperimentda olingan natijalarni katta vaqt oralig'ida eng yaxshi tarzda approksimatsiyalaydi. Shuning uchun xotirali deformatsiyalanuvchi sistemalarning dinamik masalalarini yechishda Koltunov-Rjanitsinning kuchsiz singulyar yadrosidan foydalanilgan holda kuchlanish va deformatsiya orasidagi bog'lanishni ifodalovchi Bolsman-Volterra integral modeli qo'llaniladi.

Dissertatsiyaning **“Ichidan suyuqlik oqib o'tuvchi qovushqoq-elastik silindrik qobiqlarning nohiziqli tebranishlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida geometrik nohiziqlikni hisobga olgan holda ichidan suyuqlik oqib o'tayotgan qovushqoq-elastik silindrik quvurlar dinamikasi masalasining matematik modeli qurilgan. Masalani yechish uchun kvadratura formulaga asoslangan sonli usul taklif etilgan, hamda sonli yechish algoritmi ishlab chiqilgan. Olingan natijalarning to'g'riligini tekshirish uchun test masalalari yechilgan. Quvurning geometrik va fizik parametrlarining turli qiymatlarida, silindrik qobiqning nohiziqlik dinamikasiga har xil tashqi va ichki ta'sirlar tekshirilib, suyuqlik oqimining kritik tezligini aniqlovchi mezon ko'rsatilib, suyuqlikning kritik tezliklari aniqlangan.


Ichidan o'zgarmas tezlik bilan suyuqlik harakatlanayotgan yupqa devorli qovushqoq-elastik silindrik qobiqni (2.1-rasm) ko'rinishidagi quvurning harakat tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{cases} \frac{Eh}{1-\mu^2} (1-R^*) \{L_{11}u + L_{12}v + L_{13}w\} = \rho h \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}, \\ \frac{Eh}{1-\mu^2} (1-R^*) \{L_{21}u + L_{22}v + L_{23}w\} = \rho h \frac{\partial^2 v}{\partial t^2}, \\ \frac{Eh}{1-\mu^2} (1-R^*) \{L_{31}u + L_{32}v + L_{33}w\} = q - \rho h \frac{\partial^2 w}{\partial t^2}. \end{cases} \quad (3)$$

bu yerda  $\rho$  - quvur materiali zichligi,  $h$  - quvur qalinligi,  $q$  - suyuqlikning qobiq devoriga bosimi



$$\begin{aligned} L_{11} &= \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{1-\mu}{2R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2}, & L_{22} &= \frac{1-\mu}{2} \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{1}{R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2}, & L_{12} &= L_{21} = \frac{1+\mu}{2R} \frac{\partial^2}{\partial x \partial \theta}, \\ L_{33} &= \frac{1}{R^2} + \frac{h^2}{12} \left( \frac{\partial^4}{\partial x^4} + 2 \frac{1}{R^2} \frac{\partial^4}{\partial x^2 \partial \theta^2} + \frac{1}{R^4} \frac{\partial^4}{\partial \theta^4} \right), & L_{13} &= L_{31} = -\frac{\mu}{R} \frac{\partial}{\partial x}, \end{aligned} \quad (4)$$

$$L_{23} = L_{32} = -\frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta},$$



**2.1-rasm.** Silindrik qobiq sxemasi

2.2-rasmda (a, b, c) silindrik qobiqning uzunligi bo'yicha o'rtasiga joylashgan nuqtasining qovushqoq-elastiklikni  $A$  parametriga bog'liq holda ko'chish komponentalari  $w, u, v$  larning amplitudasini vaqt bo'yicha o'zgarishlari keltirilgan. Grafiklardan ko'rinadiki, quvur materiali qovushqoq-elastik xossalarning hisobga olinishi tebranish jarayonining so'nishiga olib keladi.




**2.2-rasm.**  $A$  reologik parametrning turli qiymatlarida ( $w, u, v$ ) vaqt bo'yicha qovushqoq-elastik silindrik qobiqning markaziy nuqtasida ko'chish komponentalarining o'zgarishi:  $A = 0$  (1),  $A = 0.05$  (2),  $A = 0.1$  (3)

**2.3-rasm.**  $\delta$  geometrik parametrning turli qiymatlarida vaqt bo'yicha qovushqoq-elastik silindrik qobiqning markaziy nuqtasida  $w$  ko'chish komponentasining o'zgarishi:  $\delta = 1,1$  (1),  $\delta = 1,5$  (2),  $\delta = 5$  (3)


2.3-rasmda qovushqoq-elastik quvur  $w$  egilishining  $\delta = R/h$  parametrning turli qiymatlarida vaqtga bog'lanishi tasvirlangan. Ko'rsatib o'tilgan egri chiziqlarning tahlilidan quvur qalinligining kamayishi tebranishlar chastotasining ortishiga olib keladi, degan xulosa chiqadi. Quvur egilish amplitudasining  $\delta = 50$  (3-egri chiziq) bo'lgan holda sezilarli kattalashgani kuzatiladi.

Silindrik qobiq tipidagi qovushqoq-elastik quvur nuqtasining  $w$  (2.4-rasm),  $u$  (2.5-rasm),  $v$  (2.6-rasm) ko'chishlari vaqt bo'yicha o'zgarishining chiziqli nazariya (1-egri chiziq) va nochiziqli nazariya (2-egri chiziq) bo'yicha olingan egri chiziqlari tasvirlangan (2.4-2.6-rasmlar). Chiziqli va nochiziqli nazariyalarda olingan natijalar bir-biridan sezilarli farq qiladi (2.4-rasm). Bunda, chiziqli va


nohiziqli masalalarning vaqtning boshlang'ich momentida bir-biridan kam farq qiladi hamda vaqt o'tishi bilan geometrik nohiziqlik xossalari yechimga sezilarli ta'siri ko'rsatilgan.




**2.4-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $w$  ko'chish komponentasining geometrik chiziqli (1) va geometrik nohiziqli (2) masalalarda vaqt bo'yicha o'zgarishi



**2.5-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $u$  ko'chish komponentasining geometrik chiziqli (1) va geometrik nohiziqli (2) masalalarda vaqt bo'yicha o'zgarishi



**2.6-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $v$  ko'chish komponentasining geometrik chiziqli (1) va geometrik nohiziqli (2) masalalarda vaqt bo'yicha o'zgarishi




**2.7-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $w$  ko'chish komponentasining  $v^* = v_{cr}^*$  holatda vaqt bo'yicha o'zgarishi

Gaz oqimining kritik tezligini aniqlash mezoni sifatida, tezliklar to'plamining yuqori aniq chegarasi  $\{V\}$  tanlanadi, bunda  $t \geq 0$  shartda Bubnov-Galerkin qatorining yaqinlashuvi ta'minlanadi, ya'ni, quyidagi shart bajariladi


$$w(x, y, t) = \sum_{n=1}^N \sum_{m=1}^M w_{nm}(t) \phi_{nm}(x, y) > 1 \quad (5)$$

bu yerda  $w_{nm}(t)$  - vaqtga bog'liq funksiyalardir;  $\phi_{nm}(x, y)$  - chegaraviy shartlarga bog'liq bo'lgan ma'lum koordinata funksiyasidir.

2.7-rasmda suyuqlik oqimining kritik tezligini aniqlovchi mezoni sifatida tebranishlar amplitudasini garmonik qonun bo'yicha o'zgartiradigan tezlik olingan



**2.8-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $w$  ko'chish komponentasining  $v^* > v_{cr}^*$  holatda vaqt bo'yicha o'zgarishi



**2.9-rasm.** Qovushqoq-elastik silindrik qobiq markaziy nuqtasining  $w$  ko'chish komponentasining  $v^* < v_{cr}^*$  holatda vaqt bo'yicha o'zgarishi

2.8-rasmda tezlik  $v^* > v_{cr}^*$  bo'lganda intensiv o'suvchi amplitudali tebranishli harakat yuz beradi, bu harakat konstruksiyaning buzilishiga olib kelish ko'rsatilgan.

2.9-rasmda  $v^* < v_{cr}^*$  shart bajarilganda  $v_{cr}^*$  tezlikni kritik tezlik deb ataladi, bunday tezlikda quvur to'g'ri chiziqli ko'rinishdagi muvozanat ustuvorligini yo'qotadi. Oqim tezligi kritik tezlikdan kichik  $v^* < v_{cr}^*$  bo'lganda esa tebranishlar amplitudasi so'nishi tasvirlangan.

Reologik parametrlarning suyuqlik kritik tezligiga ta'siri 3-jadvalda ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, suyuqlik tezligining kritik qiymati elastik ( $A = 0$ ) va qovushqoq-elastik holatda ( $A = 0.1$ ) mos ravishda 25.08 va 14.19 ga teng. Shunday qilib, konstruksiya materialining qovushqoq-elastik xususiyatlari suyuqlik kritik tezligining pasayishiga olib keladi.

Shuningdek, 3-jadvalda, Bubnov-Galerkin usulining sonli yaqinlashishi tekshiriladi.  $M = 5$  da kritik tezlik 23.47;  $M = 6$  da bu tezlik 24.34 ga teng. Ularning orasidagi farq 3.7% ni tashkil qiladi. Qobiqning egilish shaklini ifodalovchi  $M$  ning qiymatining oshishi suyuqlikning kritik tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

3-jadval

**Reologik parametrlarning suyuqlikning kritik tezligiga ta'siri**

$A$	$\alpha$	$\beta$	$M$	$U_{cr} (m/s)$
0				25.08
0.01	0.25	0.005	5	23.43
0.1				14.19
	0.15			24.42
0.01	0.4	0.005	5	24.40
	0.5			24.40
	0.7			24.39
0.01	0.25	0.001	5	24.16
		0.007		23.40
0.01	0.25	0.004	3	14.67
			4	21.92
			5	23.47
			6	24.34
			7	24.41

Dissertatsiyaning “Ichidan suyuqlik oqib o'tuvchi murakkab qovushqoq-elastik sistema (silindrik quvur va asos)ning nochiziqli tebranish jarayonlarining matematik modeli, hisoblash usuli, algoritmi va olingan natijalarning tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida ichidan pulsatsiyalik suyuqlik oqib o'tuvchi silindrik quvurning nochiziqli dinamikasini ifodalovchi integro-differensial tenglamalarga asoslangan matematik model ishlab chiqilib, hosil qilingan nochiziqli integro-differensial tenglamalarni kvadratura formulalari yordamida sonli yechish algoritmi va kompyuter dasturi ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan matematik modellar, algoritmlar va kompyuter dasturlari yordamida pulsatsiyalanuvchi oqim ta'sirida qovushqoq-elastik murakkab tizimning nochiziqli tebranishlari o'rganilgan. Olingan natijalar asosida yangi mexanik effektlar aniqlangan.

Pulsatsiyalanuvchi yuklar ta'siri ostida silindrik quvurlarning matematik modellarini, yechish usullarini ishlab chiqish va dinamikasini baholash hozirgi paytda juda dolzarb va zarur muammo bo'lib, uni yechilishi talab qilinadi.

Qalinligi  $h$ , uzunligi  $L$  bo'lgan silindrik qobiq ko'rinishidagi qovushqoq-elastik suyuqlik-gaz quvurini qaraymiz. Quvurning ichida  $U(t)$  tezlikda pulsatsiyali suyuqlik oqayotgan bo'lsin, ya'ni:

$$U(t) = U_0(1 + \lambda \cos \varphi t). \quad (6)$$

Bu yerda  $\lambda$  - qo'zg'atuvchi parametr (pulsirlanuvchi suyuqlikning amplitudasi);  $\varphi$  - pulsatsiya chastotasi.

Silindrik quvurdagi dinamik jarayonni o'zida aks ettiruvchi xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

